

PAPER

SAN'ATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Qudratova Nozliya Ilhom qizi¹, *

¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

*nozliilhomovna@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada san'atning inson hayotidagi ahamiyati batafsil tahlil etiladi. San'at estetik qadriyatlarni shakllantirib, insonning his-tuyg'ularini ifoda etish, uning ruhiy holatini yengillashtirish, ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratish imkonini beradi. San'atning madaniyatlarni birlashtirishdagi roli, tarixiy merosni saqlashdagi ahamiyati va ijodkorlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari muhokama qilingan. Shuningdek, san'atning zamonaviy jamiyatda o'zgaruvchan rolini, uning xalqaro aloqa va hamkorlikda keltirgan yangiliklarini o'rganish maqsad qilib belgilangan, hamda bu mavzuda shaxsiy fikrlar bayon etilgan.

Key words: san'at, estetika, ijtimoiy, qadriyat, madaniyat, tarixiy meros, ijodkor.

Kirish

San'at inson hayotida muhim o'rin egallaydi. U nafaqat estetik tajriba yaratadi, balki hissiyotlar, fikrlar, tabiiy his-tuyg'ularni ifodalaydi. Har bir san'at asari - bu yaratuvchining ichki dunyosi, zamonasining ruhiy holati va madaniy qadriyatlarini aks ettiradigan bir vosita. San'at insonlarni birlashtiruvchi kuch. U turli madaniyatlar, tillar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Rassomchilik, musiqa, adabiyot va boshqa san'at turlari tordamida odamlar fikrlarini, orzularini va jamiyatdagi muammolarni bayon etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Hayotimizda san'at, ko'pincha stress va tashvish bilan kurashishda muhim rol o'ynaydi deb o'ylaymiz. Odamlar san'at orqali o'zlariga quvvat topib, his-tuyg'ularini tinchlantirishadi va ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratishadi. Shuning uchun, san'at yaratuvchilik jarayoni hamda hayotning muhim bir qismi sifatida qaraladi. U insoniyatning o'zini anglash, hayot mazmunini izlash jarayonida asosiy omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bulardan tasviriy san'at inson hayotida alohida o'rin tutadi. U ranglar, bo'yoqlar, shakllar, ijod namunalari orqali hissiyotlarimizni ifodalash imkoniyatini beradi, insoniyat tuyg'ularini jonlantirib, tafakkur va tasavvurni rag'batlantiradi. Zamonaviy sharoitda, tasviriy san'at insonlarning hissiyotlarini ifodalash, o'zlarini anglash, yangi g'oyalar bilan tanishish uchun bir vositaga aylanadi.

Bundan tashqari, tasviriy san'at ko'pincha muammolarni vizual ravishda baholash imkonini yaratadi. Ya'ni ijodkorlarni o'z asarlarida ijtimoiy adolatsizliklarga e'tibor qaratishga undaydi. Tasviriy san'at insonga faqat estetik qoniqish bermaydi, balki uning ichki va tashqi muhitini o'rganish, tahlil qilish imkonini ham beradi. Bu san'at turi orqali biz o'zimizning insoniyat sifatida hayotga bo'lgan munosabatimizni yanada chuqurroq tushunishga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

San'atning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyati juda keng qamrovli va murakkab bir mavzu hisoblanadi. San'at turli shakllarda, jumladan, tasviriy san'at, teatr musiqa va adabiyotda inson his-tuyg'ularini, fikrlarini, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Tasviriy san'at esa, o'z ranglari, kompozitsiyasi bilan ko'plab insonlar uchun mashhur va tushunish oson bo'lgan san'at turidir. Tasviriy san'atning ahamiyati insonga estetik tajriba yaratish bilan boshlanadi. Rassomlarning asarlari ko'pincha ko'rish va sezishdan iborat bo'lib, aralashish va fikr yuritish jarayonlariga olib keladi. Tasviriy san'at orqali inson o'z his-tuyg'ularini ifodalab, jamiyatdagi voqealarga o'z fikrlarini bildirish imkonini topadi. Shuningdek, tasviriy san'at ijtimoiy muammolarni yori-

tish va ular haqida fikr yuritishda muhim rol o'ynaydi. Ko'plab rassomlar o'z asarlarini jamiyatdagi adolatsizliklarga, urushlarga yoki tabiiy ofatlarga e'tibor qaratish maqsadida yaratadi. Masalan, 20-asrning boshlanishidagi urushlarga bag'ishlangan badiiy asarlar jamiyatda dard chekuvchi insonlarning holatini aks ettirgan, mujassam bo'lgan muammolarni ko'rsatib berishga xizmat qilgan.

Natijalar

San'at va tasviriy san'at insoda ijobiy natijalar ko'rsatadi. Ushbu natijalar hayotimizning turli jabhalarida namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz.

1. Estetik qoniqish: Tasviriy san'at asarlari insonlarga estetik qoniqish berish orqali hayotning go'zalligini, rang-barangligini, his-tuyg'ularini tajribadan o'tkazish imkonini beradi. Rassomlar o'z asarlari orqali jamiyatni va tabiatni go'zallik nuqtai nazaridan ko'rsatadi, bu esa tomoshabinlarning hislarni uyg'otishiga yordam beradi.

2. Ijtimoiy muammolarni ko'tarish: Tasviriy san'at ijtimoiy adolatsizliklar, muammolar, hamda voqealarga yondashish vositasi sifatida xizmat qilishi ham mumkin. Rassomlar tasvirlarda ijtimoiy va ekologik vaziyatlarni tasvirlab, tomoshabinlarni bu masalalar ustida o'ylashga undaydi.

3. Ijodkorlik: San'at bilan shug'ullanish, o'z-o'zini ifoda etish va ijodkorlikni rivojlantirish imkonini yaratadi.

4. Stress va kayfiyatni yaxshilash: Tasviriy san'at bilan shug'ullanish stressni pasaytirish va kayfiyatni yaxshilashda muhim ta'sir ko'rsatishini olimlar ham ta'kidlashgan. Rassomlar asar yaratish orqali o'z munosabatlarini va hissiyotlarini chiqarish imkonini topish orqali ruhiy holatni yengillashtiradi.

5. Ta'lim va tarbiya: Tasviriy san'at orqali insonlar ta'lim olishlari, turli texnikalarni o'rganishlari hamda shaxsiy rivojlanishlari mumkin. Bu esa bilimlarni oshirish va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

San'at va tasviriy san'at, ijtimoiy jarayonlar, tarixiy lahzalar, madaniy an'analarning aks etishiga xizmat qiladi. Masalan, san'at haqida yozilgan asarlar va tadqiqotlar insoniyat tarixini o'rganishda muhim vositadir. Ular ma'lum bir davr va madaniyat haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, san'at inson hayotining ajralmas qismi ekanligini anglashimiz zarur. U insoniylikning qadriyatlari va ijtimoiy ruhiyatini ifoda etishga yordam beradi. Tasviriy san'at, nafaqat ijodkorlar, balki jamiyatni rivojlantirishda kuchli vosita hisoblanadi. Bu jihatlar san'atning inson hayotida tutgan o'rnini va ahamiyatini yanada oshiradi desak adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "San'at va inson" – Luisa F. D'Elia.
2. "Tasviriy san'at asarlari orqali hissiyotlar" – V. I. Chuvilin,
3. "San'at va madaniyat" – R. D. Adams
4. "San'atning ijtimoiy ahamiyati" – S. N. Shirokov, FUH shahridagi ijtimoiy jarayonlarda san'atning roli va ta'siri haqida ma'lumotlar berish mavzusida
5. Sultanov X.E. Klaster yondashuvida tasviriy san'at darslarini tashkil etish.